

SHAXS TARAQQIYOTIDA MOTIVATSIYANING ROLI VA AXAMIYATI

University of Business

and Science

pedagogika va psixologiya kafedrası

stajyor o'qituvchisi

To'raboyev Azamat Muxamadullayevichemail: turaboevazamat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs taraqqiyotida motivatsiyaning ahamiyati, motiv va motivatsiyaning turlari, motivatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari ularni keltirib chiqaruvchi omillari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, iste'dod, psixika, iroda, qiziqish, layoqat, mayl, qobiliyat, motiv, motivatsiya, intellectual, iqtidor.

Аннотация: В статье анализируется значение мотивации в развитии личности, виды мотивов и мотивации, положительные и отрицательные стороны мотивации, а также факторы, их обуславливающие.

Ключевые слова: Образование, воспитание, талант, психика, воля, интерес, способность, склонность, умение, мотив, мотивация, интеллектуал, талант.

Abstract: This article analyzes the importance of motivation in personal development, types of motives and motivation, positive and negative aspects of motivation, and factors that cause them.

Keywords: Education, upbringing, talent, psyche, will, interest, ability, inclination, ability, motive, motivation, intellectual, talent.

KIRISH

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini toliq amalga

oshirishga e'tibor berishga bogliq boladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining nutqida —Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va manaviy salohiyatga ega bolib, dunyo miqyosida oz tengdoshlariga hech qaysi sohada bosh kelmaydigan insonlar bolib kamol topishi, baxtli bolishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, deb takidlagan edi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning ozoq muddatli rivojlanishini taminlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishlari boyicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo'lmadi. Darhaqiqat, yetuk kadr bo'lish uchun shaxs nafaqat o'z iqtidori, bilimi va saviyasini nazariy jihatdan oshirishi zarur.

Inson tomonidan yangi yutuqlarga erishish uchun say-harakatlar qanday taqsimlanishi va buning uchun xatti-harakatning qanday turi tanlanishi mumkinligini tahlildan o'tkazadi.

Motivatsiya bu harakatga undash; inson xatti-harakatini boshqaruvchi, uning uyushganligi, faolligi va barqarorligi yo'nalishini belgilovchi fiziologik va psixologik ma'nodagi harakatchan jarayon, insonning o'z ehtiyojlarini faoliyat orqali qondirish salohiyatidir.

Motivatsiya intellektual asosga ega bo'ladi, hissiyotlar jarayonga faqat bilvosita ta'sir ko'rsatadi (bu jarayonni faqat insonga nisbatan qo'llash mumkin).

Motivatsiya tushunchasini motiv tushunchasi belgilab beradi. **Motiv** –bu moddiy yoki ideal narsa bo'lib, unga erishish faoliyatning ma'nosi sifatida yuzaga chiqadi. Motiv insonga muayyan predmetni qo'lga kiritish borasidagi umidlardan paydo bo'ladigan ijobiy hissiyotlar yoki hozirgi holatning mukammal emasligi bilan bog'liq salbiy hissiyotlar bilan xususiyatlanuvchi o'ziga xos kechinmalar ko'rinishida ta'sir ko'rsatadi. Motivni anglab yetish uchun ichki ish taqozo etiladi.

Motivatsion menejment – bu ish harakatni motivatsiyalash ustivorligiga ya'ni, ish faoliyati natijasida manfaatdorlik sharoitlarini yaratish hamda tashkilot maqsadlarga intilish asosida barpo etilgan boshqaruvdir.

Bugungi kunga kelib jahondagi eng rivojlangan kompaniyalarda keng qo'llab-quvvatlanayotgan 15 ta eng muhim tamoyil yaqqol ko'zga ko'rinib qoldi. Bu tamoyillar umuman korporatsiyadan tortib bo'limlar va bo'linmalargacha bo'lgan barcha bosqichlarda to'liq hajmda qo'llanilmoqda, bular:

- Mustahkam e'tiqod, qadriyatlar, madaniyat;
- Shaxsga hurmat;
- Umrbod bandlik;
- Yuksak toifadagi xodimlarni yollash;
- Lavozimda ko'tarilish imkoniyatlari;
- Davomli tayyorgarlik;
- Yagona maqom;
- Attestatsiyalar va suhbatdan o'tkazish;
- Oylik ish haqqi darajalari tizimi;
- Xodimlarga bir butun munosabat;
- Xodimlarning boshqaruvda ishtiroki;
- Imkon qadar yuksak mas'uliyat;
- Boshqaruvga rejalashtirilgan cheklanishlar;
- Gorizontaal aloqalar;
- Qarashlardagi farqlarni rag'batlantirish¹.

Avvalroq motivatsiyalashning turli tuman usullari haqida so'z yuritildi, bu fikrlardan kelib chiqqan holda motivlash – harakat qilishga undash, biror harakatni amalga oshirish kerakligi sababini ko'rsatish, buning uchun kerakli sharoitni yaratishdir. Motivatsiya olish – o'z hayotingizga o'zgartirish kiritish uchun yetarli

¹ <http://mirznanii.com/a/162404/protsessualnye-teorii-motivatsii>

sabablarga ega bo'lish va ushbu o'zgarishlar yo'nalishida harakat qilishdir - deb, aytish mumkin. Ko'rinib turganidek, motivatsiya bu nimagadir intilish, harakat qilishdir.

Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, motivatsiya ichki yoki tashqi motivatsiya bo'lishi mumkin. Ichki motivatsiya – bu o'z komandamizni va tashkilotimizni tashkil qilish uchun har kuni bor kuchimizni sarflab, harakat qiladigan narsamizdir. Bu qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar davrida so'nib qolmasligingizga yodam beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi qudratdir. Ichki motivatsiya harakat qilishga undaydi. Yuqori ichki motivatsiyaga ega bo'lgan odam uchun faoliyatning o'zi mukofot bo'ladi. Bu odamga ushbu jarayonning o'zi, bu jarayon tufayli yuzaga keladigan o'zgarishlar qiziqdir. U tabiiy ravishda ma'naviy va moddiy rag'batlantirish oladi. Natijada aynan yuqori ichki motivatsiyaga ega bo'lgan va bunday qaraganda pul uchun ishlamayotgan odamlar tarmoqli marketingda eng katta daromadga ega bo'lishadi.

Oldingizga qo'yilgan maqsadga erishganingizda nima olishingiz muhim emas, unga intilayotib kimga aylanishingiz muhimdir.

Ichki motivatsiya – bu:

- orzu, amalga oshganlik;
- g'oyalar, ijodiyot;
- o'ziga bo'lgan ishonch;
- qiziqish, qiziquvchanlik;
- salomatlik;
- kimgadir keraklik;
- shaxsiy yuksalish;
- muloqotga ehtiyoj.

Tashqi motivatsiya – bu atrofingizdagi ijtimoiy muhitdagi narsalarga ega bo'lishga intilishdir:

- pullar;
- martaba;
- maqom;

- e'tirofga sazovor bo'lish;
- qadrlanuvchi narsalar(uy, boshqa moddiy ne'matlar);
- sayohat qilish imkoniyati...

Homiy sifatida faqatgina tashqi motivatsiyadan foydalanib va ichki motivatsiyani rivojlantirmasdan biz “pufak” samarasiga erishamiz – u hamisha havo qo'yib yuboraveradi, biz esa uni cheksiz marta qaytadan puflashimiz kerak bo'ladi. Albatta bularning hammasi – pul ham, martaba ham, sayohatlar ham muhim. Lekin ular doimiy ravishda o'zgaraverishadi.

Kechagina uyingizni ta'mirlatish sizni qoniqtirayotgan bo'lsa, bugun yangi uy qurishni boshlaysiz, chunki daromadlaringiz bunga imkon beryapti. Kecha siz huddi yovvoyilarga o'xshab ochiq osmon ostida dam olayotgan bo'lsangiz, bugun shahardagi eng zo'r mehmonxonada qolyapsiz. Bizning moddiy imkoniyatlarimiz o'zgarishi bilan tashqi motivatsiya ham o'zgara boradi².

Motivatsiyaning ijobiy va salbiy omillari. Hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan motivatsion omillarning hammasini hissiy ravishda tushunarli bo'lgan ikkita g'oyaga ajratish mumkin:

- og'riqlardan xolos bo'lish;
- lazzatlanish.

Bu holda ikkala omil ham ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin. Agar sizning harakatlaringizda ikkala omil ham ishtirok qilayotgan bo'lsa, juda kuchli oldinga siljish bo'ladi. YA'ni bu omillarning bittasi orqadan turtki beradigan, ikkinchisi esa oldinga yetaklovchi vazifasini bajaradi.

Motivatsiyaning bu turlari turli yo'nalishlarda, turli natijalar bilan va turlicha ta'sir ko'rsatadi. Hamma odamlar ma'lum darajada ikkala motivatsiya turidan ham foydalanishadi. Lekin bunda ularning bittasini ko'proq afzal ko'rishadi.

O'z jamoangizni ham, o'zingizni ham motivlashingiz mumkin. Bunda ikkita narsaga e'tibor bering:

- kimnidir ilxomlantirish, orzusiga erishishga ishonch hosil qilish uchun oldin o'zingizning ichingizda alanga bo'lishi kerak;

- imkon qadar muvaffaqiyatga faqat ichki va tashqi motivatsiyalar orasida muvozanat bo'lgandagina erishish mumkin.

Shunday qilib sizning oldingizda uchta vazifa turibdi:

- ichki motivatsiyani alangalatish;
- boshqalarga g'alabaga undash;
- muvozanatga erishish.

Muvozanatda o'z-o'zini motivlash. Agar siz qayerdan kelayotganingiz va qayerga ketayotganligingizni bilsangizgina har qanday harakatingizni oldindan rejalashtirishingiz va uniga erishishingiz mumkin. Har qanday muvaffaqiyatli harakat xohishdan boshlanadi.

Yetakchi – bu ichki motivlar asosida harakat qiluvchi va ma'lum vaqt davomida tashqi motivlardan voz kecha oladigan (kechiktirilgan mukofot) kishidir. Shunday ekan yetakchining motivatsiyasi faqat ichki ijobiy yoki salbiy motivatsiyadir, ya'ni:

- u orzudan boshlanadi;
- orzuga erishishi uchun uzoq muddatli maqsadlar aniqlanadi va yozib qo'yiladi;
- uzoq muddatli maqsadlar qisqa vaqt bo'laklariga – qisqa muddatli maqsadlarga ajratiladi;
- qisqa muddatli maqsadlar uchun kundalik reja tuziladi.

Mana shunday ilhomlantiruvchi jarayonda bunday zerikarli ishlarni qilishning nima keragi bor deb so'rarsiz? Bu shuning uchunki, motivatsiya – bu faqat oldinga yetaklovchi kuchdir. Maqsadga erishishi uchun manzil qayerdaligini biladigan boshqaruvchi, bu manzilga eltadigan yo'llar va ushbu ulovning sozligini ta'minlovchi kishilar kerak bo'ladi. YA'ni, aniq maqsadlarsiz motivatsiya – bu mushakbozlikka o'xshaydi. Shovqini ham, yorug'i ham ko'p bo'ladi, lekin foydasi bo'lmaydi.

Motivlar anglanmagan holatda ya'ni, agar inson o'zini u yoki bu harakatni sodir etishga nima turtki berayotganini anglamasa, uning ruhiy holati alohida ko'rinishda – harakatlarning hissiy tusi ko'rinishida tasavvur qiladi.

Muayyan vaziyatlarda ayrim ehtiyojlar xatti-harakatning murakkab motivatsiyalariga aylanishi, bir-biri bilan to'qnashishi, bir-biriga bo'ysunishi mumkin. Biron bir sohada keskin motivlar qarama-qarshiligi oson hal bo'lmaydi. Masalan, orkestr ijrosidagi konsertda dirijerga tobe'lik faoliyati asarning yaxlit qiyofasi ustidan hukmronlik qiluvchi yakkaxon ijroning mustaqilligi qo'shilib ketadi.

Xulosa qilib aytganimizda, zamonaviy psixologiyada "motiv" "motivlashtiruvchi omil" atamasi bilan instinktiv tuyg'ular, biologik moyilliklar, qiziqishlar, istaklar, hayotiy maqsadlar va orzular singari butkul turlicha hodisalar ifodalanadi. Ehtiyoj birinchi marta qondirilmaguncha o'z predmetini topa olmaydi. San'at har qanday darajadagi motivatsiya uchun o'z predmetini taqdim eta oladi, masalan musiqiy kechinmalarga bo'lgan ehtiyoj ham jismoniy hissiyotlar (organizm tomonidan) shuningdek, hissiyotlarga bo'lgan psixologik ehtiyojlar va o'quvchining (talabaning) musiqa orqali o'ziga o'xshaganlarga intilishga majbur etuvchi "ijtimoiy Men"idan kelib chiqishi mumkin. Faqat shunday topish natijasidagina ehtiyoj o'z predmetiga erishadi. Bu demak, o'z kechinmalarini ifodalash hamda san'at shakllarida qayd qilingan boshqa kishilar va elatlar o'tkazgan kechinmalarni ifodalash ehtiyoji san'atning qandaydur turi bilan shug'ullanish jarayonidagi mashg'ulotlarda mustahkamlanadi (yoki mustahkamlanmaydi), ya'ni hissiyotlar bilan almashish motivi o'zining ustuvor predmetli sohasiga, boshdan kechirilgan kechinmalar, qiyofalar, g'oyalarni tanib qolish uchun til tushunarli bo'lib qoladi hamda bu til boshqa kishilar tajribasi va o'z-o'zi bilan muloqotga kirishish tiliga - avtomuloqot tiliga aylanadi. Demak, san'at mashg'ulotlariga motivatsiyaning ildizi sifatida his qilingan tajriba bilan almashuv ehtiyojini qondirish yuzaga chiqadi. Bunday almashuv ozmi ko'pmi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, ya'ni o'z o'zini ifodalashda ustivor deb hisoblanuvchi jihat o'qituvchilar, ota-onalar, atrofdagilar tomonidan mustahkamlanishi yoki mustahkamlanmasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya psixologiya mutaxassisligi uchun. - Toshkent, 2002. -542 b

2. Haydarov F.I., Jo'rayev N.S. Psixologiya tarixi. O'quv qullanma. –Toshkent, 2008. -170 b.
4. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya bakalavriat yo'nalishi: pedagogika va psixologiya talabalari uchun darslik. -Toshkent, 2010. "Nizomiy nomidagi TDPU"
3. Zaynutdinov SH.N.va boshqalar. Menejment asoslari-T.Moliya, 2001 y.
4. G'oziyev.E.G'., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq atvor motivatsiyasi. - Toshkent: Universitet, 2003.
5. Odilboyevich, J. X. (2025). TA'LIM TIZMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLLALARNI O 'QITISHDA INKLYUZIV TA'LIMNING O 'RNI VA AHAMIYATINING PEDAGAGIK VA PSIXOLOGIK JIXATLARI. *Research Focus*, 4(Special Issue 2), 132-140.
6. Odilboyevich, J. X. (2025). O 'SMIRLIK DAVRIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIIY MUHITNING TA'SIRI. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 4(4), 150-153.
7. Jurayev, X. O. (2024). Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o 'z men konsepsiyasining psixologik mexanizmlari. *Science and Education*, 5(9), 237-242.
8. Odilboyevich, J. X. (2025). DEVIANT XATTI XARAKATLARNING NAMOYON BO 'LISHIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINI O 'RNI. *Международный журнал научных исследователей*, 10(2), 29-34.
9. Odilboyevich, J. X. (2024). Yuridik Faoliyatda Psixologik Ta'sir Etish Va Jinoyatchi Shaxsning Psixologik Xususiyatlarini Aniqlash. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 2(2), 7-10.
10. Muxamadullayevich, T. R. A. (2025). SHAXSDA HISSIY ZO'RIQISHLARNING NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI. *Международный журнал научных исследователей*, 10(2), 99-102.